



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqib boshlagan

№15 (777), 2024-yil 15-avgust

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

■ O'zbekiston Respublikasi qurilish sohasi xodimlari kuniga

QURILISH SOHASIDA BUNDAN KEYIN HAM MARRANI KATTA OLGANMIZ

Bunyodkorlik keng tushuncha. Uning zamirida nafaqat qurilish yoki obodonlashtirish, balki shu yurt taraqqiyotiga hissa qo'shish orqali xalq farovonligini ta'minlash maqsadi ham mujassamdur. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham qurilish tarmog'i tobora taraqqiy etib borayotgan yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. Kombinat quruvchilari barpo etayotgan gidrometallurgiya zavodlari, kon va shaxtalar, temir yo'llar, ko'priklar va yo'llar, ijtimoiy soha obyektlari Yangi O'zbekistonning yangicha qiyofasini yaratishga katta hissa bo'lib qo'shilmoqda.

qari, sohamizda sifat va samaradorlik birinchi o'rinda turadi. Shu bois, ishni pishiq-puxta amalga oshirish doimiy diqqat-e'tiborimizda. Quruvchilarning buni chuqur his etib, ulkan loyihalarni tez va qisqa muddatda uddalayotgani hamda so'nggi yillarda amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari buning yaqqol isbotidir.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ bunyodkorlarining keyingi yillardagi muvaffaqiyati sifatida umumiy qiymati 2,9 milliard AQSh dollari bo'lgan 23 ta yirik investitsion loyiha ishga tushirildi. Investitsiya dasturi doirasida foydalanishga topshirilgan 5, 6, 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodining ikkinchi navbati, 3-gidrometallurgiya zavodining yettinchi tegirmon bog'i, yangi ochilgan "Turabay", "Balpanov" hamda "Tomdibuloq" konlari, temir yo'llar va boshqa obyektlar shular jumlasidandir.

Zarafshon qurilish boshqarmasi Navoiy kon-metallurgiya kombinatining yirik qurilish tashkiloti sifatida muxassis va quruvchilarni jam qilgan bo'linmalaridan biridir. Mazkur qurilish boshqarmasi asosan sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga yo'naltirilgan investitsion loyihalarning barcha obyektlari bo'yicha bosh pudratchisi hisoblanadi.

Hozirda boshqarma quruvchilari "Kokpatas" va "Dovgiztov" oltin konlarida ma'dan qazib olish III navbati, "Amudaryo-Zarafshon suv quvurining uchinchi liniyasini qurish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish", "Muruntov" konini o'zlashtirish (V-navbati) 1-bosqich, "2-GMZ va 7-GMZ chiqindilarini birgalikda saqlash uchun 2-GMZ chiqindi omborini kengaytirish va rekonstruksiya qilish" kabi yirik loyihalar qurilish-montaj ishlarida faol ishtirok etmoqda.

Jamoa oldida joriy yilda katta sinov va mas'uliyatli vazifalar turibdi. Xususan,

"Amudaryo-Zarafshon suv quvurining uchinchi liniyasini qurish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish" loyihasini, "Kokpatas va Davgiztov oltin konlarida ma'dan qazib olish III navbati" loyihasi bo'yicha 8-tegirmon blokini, "Nurota tumanidagi "Pistali" konida oltin tarkibli ma'danlarni qayta ishlash majmuasi", ya'ni, 6-gidrometallurgiya zavodi hududida infratuzilma obyektlarini to'liq ishga tushirish mo'ljallangan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, kombinat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ishchi-xodimlarga munosib yashash sharoitlarini yaratish borasida ham faol ishlarni amalga oshirib kelinmoqda. Keyingi yillarda Zarafshon shahrida "Umid" bolalar reabilitatsiya markazi, 504 o'rinni ixtisoslashtirilgan maktab-internati, Favvoralar sayilgohi, "To'dako" dam olish bazasida Xalqaro shaxmat maktabi, Zomin tumanida

ti tizimida ham butun umrini quruvchilik kabi sharafli kasbga bag'ishlagan fidoyi mutaxassislar ko'p. Xususan, mehnat faxriylari A. Eshonqulov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan quruvchi" faxriy unvoni, V. Kapanadze "Mehnat shuhrati" ordeni, Investitsiyalar boshqarmasi boshlig'i N. Ro'ziyev "Mehnat shuhrati" ordeni hamda ko'plab quruvchilarning turli davlat mukofotlari bilan taqdirlangani kombinat quruvchilarining fidokorona mehnatiga berilgan munosib bahodir.

Qurilish sohasida bundan keyin ham marrani katta olganmiz. Jumladan, joriy yilda umumiy qiymati 1 milliard AQSh dollari bo'lgan 11 ta muhim investitsion loyihani amalga oshiryapmiz. Ko'p ming kishilik jamoamiz bilan kombinatni 2026-yilgacha strategik rivojlantirish dasturini muddatidan avval yakunlab, oltin ishlab chiqarish hajmini 32 foizga oshirish mo'ljallangan. Bu ishlarida mohir quruvchilarning chetda turishgani yo'q.

Dunyoda keskin raqobat ketayotgan hozirgi davrda peshqadamlar safida bo'lish, ishlab chiqarish sur'atini oshirish qiyin va murakkab jarayon. Chunki bir joyda to'xtab qolgan, kelajak yo'lini tanlay olmagun har qanday korxonaga yutqazadi. Buni to'g'ri anglagan kombinat jamoasi bunyodkorlik sari odimlab bormoqda.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tizimida mehnat qilayotgan barcha quruvchilarni kasb bayrami bilan qutlaymiz. Yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lida olib borayotgan ezgu faoliyatingizda, yangi manzillarni yaratishdek mas'uliyatli kasbingizni amalga oshirishda omad yor bo'lsin deymiz.

Farhod BAXRONOV,
"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ bosh direktorining investitsiyalar va kapital qurilish bo'yicha o'rinbosari.



Bugungi kunda kombinat o'zining zamonaviy va yirik qurilish tashkilotlariga ega. Ular orasida Investitsiyalar boshqarmasi, Kapital qurilish boshqarmasi, Zarafshon qurilish boshqarmasi muhim ahamiyatga ega. Ularda hozirgi kunda 3,5 ming nafarga yaqin quruvchi-muhandis mehnat qilmoqda. Quruvchilar safida yuzlab yoshlar va xotin-qizlarning ham borligi katta marralar sari dadil

odimlashga xizmat qilyapti.

Quruvchilik sharafli kasb. Uning yuki qanchalik zalvorli ekanini, ulkan mas'uliyat va mashaqqat talab etishini yaxshi bilamiz. Chunki qurilish degani bu o'z-o'zidan bo'lib qoladigan oson ish emas. Unda har bir qadam — loyihani mukammal ishlab chiqishdan tortib, bunyod etganga qadar mahorat, tajriba, fidokorona mehnat talab etiladi. Bundan tash-



Istiqbolli loyihalaridan yana biri hisoblangan "Kokpatas va Dovgiztov oltin konlarida ma'dan qazib olish III navbati 7 va 8-tegirmon bloki qurilish ishlarining yakunlanishi yiliga ikki million tonna ma'danni qayta ishlash va 1,3 mingta yangi ish o'rini yaratish imkonini beradi.

Zarafshon qurilish boshqarmasida zamonaviy texnika vositalari ish sur'atini oshirishga xizmat qilyapti. Keyingi besh yilda "Zarafshon qurilish boshqarmasi ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va qayta jihozlash" loyihasi doirasida turli ruzumdagi 160 dan ortiq avtotransport, texnika va mexanizmlar keltirildi.

"NKMK" sanatoriysi, Uchquduq tumanida "Oltinko" dam olish majmuasi va boshqa obyektlar ham qad rostlagani jamoa bunyodkorlarining mehnati natijasidir.

Qurilish-bunyodkorlik ishlaridan tashqari, korxonada qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'i ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, hozirda 24 turdagi mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, temirbeton, metall konstruksiyalar, g'isht, qum, ohak, shag'al, eshik-derazalar, polietilen quvurlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilayotgani korxonaga manfa'atiga xizmat qilmoqda.

Har bir sohaning o'z jonkuyarlari bo'ladi. Navoiy kon-metallurgiya kombina-


■ Xabarlar. Yangiliklar

"Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida Navoiy kon-metallurgiya kombinatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, ishlab chiqarish obyektlari to'liq raqamlashtirilib, kon-geologiya ishlaridan tortib, tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan jarayon kompyuterlashgan boshqaruv tizimiga o'tkazilmoqda.

Markaziy kon boshqarmasi Temir yo'l transporti boshqarmasining "Muruntov" stansiyasida temir yo'lga yuk tashishni boshqarishning releli tizimi ilk bor zamonaviy mikroprotsessorli raqamlashtirilgan tizimga o'tkazildi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbir-da kombinat mutaxassislari, temiryo'lchilar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xodimlari ishtirok etdi.

— Zamonaviy mikroprotsessorli raqamlashtirilgan tizim boshqarmamizda temir yo'l sohasini yangi pog'onaga olib chiqadi, — deydi Zarafshon axborot-kommunikatsiya texnologiyalari markazi guruh boshlig'i Sherzod Abdullayev. — Ishlab chiqarish jarayonlarida temir yo'l infratuzilmasi strategik muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, bu yerda qariyb 10 milliard so'mlik loyihani amalga oshirishni yuk tashishni boshqarishning yagona "aqli" tizimiga quyilgan birinchi qadam hisoblanadi.

"Muruntov" temiryo'l stansiyasida gi mazkur loyiha kombinatning ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi va "Trans Engineering Group" injenerlik kompaniyasi mutaxassisla-



ri tomonidan amalga oshirildi. Mikroprotsessorli boshqaruv tizimi joriy etilishi kasb bayramiga munosib tuhfa bo'ldi.

— Zamonaviy raqamlashtirilgan infratuzilma ma'dan tashishni ko'paytiradi, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi hamda harakat xavfsizligini oshiradi, — deydi Temir yo'l transporti boshqarmasi xizmat boshlig'i Sahob Tursunov. — Ho-

ziri vaqtda kundan 2-gidrometallurgiya zavodiga ma'dan tashish hajmi yiliga 50 million tonnadan oshgan. Harakatni boshqarishning yangi raqamlashtirilgan tizimini joriy etishning eng asosiy elementlaridan biri — bu inson omilini kamaytirish va samaradorlikka erishishdir.

Ushbu loyiha temir yo'l harakatini boshqarish jarayonlarida o'zgarishlarni tezkor sezish, transport oqimini prog-

nozlash va tahlil qilish, svetofor ishini optimallashtirish va transport vositalari harakatini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Ayni vaqtda Temir yo'l transporti boshqarmasi yuk va yo'lovchi tashish



hajmini oshirish bilan bir qatorda, yangi ish o'rinishini yaratish, tarmoq korxonalarini uchun mutaxassislar tayyorlash borasida salmoqli ishlarni amalga oshiryapti. Tizimdagi bir yarim ming nafarga yaqin malakali, o'z kasbiga sadoqatli, fidoyi temiryo'lchilar kunu tun samarali mehnat qilishmoqda.

Azamat ZARIPOV.

"MURUNTOV" TEMIRYO'L STANSIYASI RAQAMLASHTIRILDI

Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi ishlab chiqarish, ma'dan tashish hajmini oshirish, tannarxni kamaytirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarni ishga solmoqda. Ayni paytda qurilishning manzilli dasturi doirasida "Muruntov" konida "Shimoliy-sharqiy" davriy oqim texnologiyasi majmuasi hamda 2-konveyer liniyasini kengaytirishga kirishilgani ana shunday sa'y-harakatlar natijasidir.

YANGI KONVEYER LINIYALARI QURILMOQDA



"Shimoliy-sharqiy" davriy oqim texnologiyasi majmuasida ma'dan tashish liniyasini kengaytirishga 104,4 milliard so'm mablag' ajratilgan. Hozirda bu bo'yicha yangi konveyer, elektr liniyalari, qo'shimcha chiqindi maydonini qurish, ag'darma konveyer liniyasini 1,1 ming metrga uzaytirish va boshqa yo'nalishlarda ishlar davom etmoqda. Bu loyihaning to'liq quvvatda ishga tushishi kelgusida ma'dan tashish hajmini yiliga 15 million kubometr ga oshiradi. Xuddi shunday konveyer liniyasini kengaytirish uchun 194,4 milliard so'm mablag' ajratilgan bo'lib, shu davrga qadar foydalanishda bo'lgan 1877,4 metrik liniyaga qo'shimcha tarzda ming metr dan ziyod yangi liniyani qurish ko'zda tu-

tilgan. Loyiha to'liq quvvatda ishga tushirilganda yiliga 12 million kubometr ma'dan tashish imkonini beradi.

— Bu kabi ma'danni liniyalar (lenta-da tashish mexanizmi) orqali tashish eng qulay, samarali va tejimkor imkoniyat ekani amalda isbotlangan. Bu, hech shubhasiz, ish samaradorligini oshirish bilan birga, ishchi kuchi, vaqt, transport xarajatlarini, yoqilg'i-moylash materiallarini tejash demakdir, — deydi Markaziy kon boshqarmasi kapital qurilish bo'limi muhandisi Suxrob Samadov. — Bu ishlarining barchasi o'tgan davr mobaynida bu borada yetarli tajriba to'plagan o'zimizning mutaxassislar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Aziza IRISOVA.

■ O'zbekiston Respublikasi qurilish sohasi xodimlari kuniga

Sanoat korxonalarida katta yoki kichik bo'lsin, har bir ish loyiha hujjatlarini tayyorlashdan boshlanadi. "NKMK" aksiyadorlik jamiyati Markaziy loyihalash byurosi boshlig'ining o'rinbosari – loyiha bosh muhandisi Otamurod Jabborovning jamoa faoliyati haqidagi so'zlari, fikr-mulohazalarida ham bu o'z ifodasini topyapti.

mahsulotlaridan, shuningdek "Datamine" dasturidan foydalanadilar. Barcha loyihalar vakolatli organlarda texnik va texnologik yechimlarni tasdiqlash tartib-qoidalaridan o'tadi.
- Byuro tomonidan bajarilayotgan muhim loyiha-smeta hujjatlari haqida to'xtalib o'tsangiz.

oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash kompleksini qurish (6-GMZ) TIA tarkibida "Pistali konida doimiy yer usti portlovchi moddalar saqlash omborini qurish", "Pistali karyeri zaxiralarini qazib olish". "Muruntov" konini o'zlashtirish (V-navbat) 1-bosqich TIA tarkibida "Janubiy davriy oqim tex-

LOYIHA – SAMARALI ISHLAR ASOSI

- Markaziy loyihalash byurosi faoliyati to'g'risida gapirib bersangiz.

- Loyiha-texnikaviy hujjatlarining majmuasidan iborat bo'lib, bularga obyektning qurilish yoki qayta qurilish zarurati asoslovchi yozuvlar, nostandart uskunalarini tayyorlash, shuningdek, barcha turdagi qurilish-montaj va sozlash ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hisoblashlar va chizmalar kiradi. Qurilayotgan obyektning murakkabligiga qarab, loyihada texnik-iqtisodiy, texnologik, qurilish, santexnika, elektr, avtomatika kabi qismlar bo'lishi mumkin.

Markaziy loyihalash byurosi konchilik, geomexanika, texnologik, texnik-iqtisodiy hisob-kitob, qurilish, arxitekturalik, kon elektromexanikasi, santexnika, gidrotexnika, avtomatlashtirish va signalizatsiya, atrof-muhit muhofazasi, smeta, qurilish konstruksiyalari hisob-kitob guruhlardan iborat. Byuro xodimlarining 45 foizi tegishli malaka toifasiga ega. Jamoamizda ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan ikki nafar texnika fanlari nomzodi, 12 nafar magistrlar bo'lib, ulardan 6 nafari falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun ilmiy ish olib bormoqda. Ba'zi holatlarda loyihalarga o'zgartirishlar kiritish lozim bo'ladi, byuro muhandis-xodimlarining boy tajribaga ega bo'lganliklari sabab, bu o'zgartirish-



lar tezkorlikda amalga oshiriladi.

Byuro arxitektura va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish, yuqori xavfli obyektlar va potentsial xavfli ishlab chiqarishni loyihalash bo'yicha litsenziyalarga ega. Markaziy loyihalash byurosi mutaxassislari ish samaradorligini oshirish maqsadida, "AUTODESK" kompaniyasining "BIM" texnologiyalari (Building Information Modeling) bilan mos keladigan, litsenziyalangan, 2021-yilda sotib olingan eng so'nggi dasturiy

- Amalga oshirilgan loyiha-smeta hujjatlarining yillik hajmi qariyb 50-60 milliard so'mga baholanoqda. "Balpantov" va "Tomdibuloq" konlari negizida qazib olish karyerini qurish, "Chuqurquduq koni zaxiralarini qazib olish", "Navoiy mashinasozlik zavodi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish", "Muruntov" konini o'zlashtirish (V-navbat) 1-bosqich. "Auminzo-Amantoy" konida doimiy yer usti portlovchi moddalar saqlash omborini qurish", "Pistali konining

nologiyalari majmuasi qurilishi", "Shimoliy-sharqiy davriy oqim texnologiyalari majmuasi qurilishi", "Besapantau karyeri qazib olish majmuasi" va boshqa yirik loyihalar byuro mutaxassislari tomonidan bajarilib, ayni paytda amalga oshirilmoqda.

Hozirda "Kokpatas va Dovgiztov oltin konlarida ma'dan qazib olish. III navbat" texnik-iqtisodiy asoslash loyihasi yakuniy bosqichda bo'lib, bu loyihaning amalga oshirilishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishda va aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Kokpatas va Daugiztov oltin konlarida ma'dan qazib olish III navbat investitsiya loyihasini amalga oshirish" loyihasi "NKMK" AJni 2030-yilgacha barqaror rivojlantirish dasturida nazarda tutilgan bo'lib, mazkur konlarda ma'dan qazib olish, 3-GMZda qayta ishlash hajmini oshirish imkonini beradi.

Markaziy loyihalash byurosi tomonidan yiliga nafaqat ishlab chiqarish, balki ijtimoiy obyektlar, ishchilarga munosib sharoitlar yaratish, shuningdek infrastrukturaga bilan bog'liq 100 dan ortiq loyihalar ham ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

A.AXMEDOVA
suhbatlashdi.

■ Yangiliklar

QURUVCHILAR SHARAFLANDI

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida qurilish sohasi xodimlari kuni keng nishonlandi. "NKMK" AJ boshqarmasida sana munosabati bilan bir guruh soha ilg'orlari munosib taqdirlandi.

Tadbirida "NKMK" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori v.b. A.Ravshanov so'z olib, soha xodimlarining xizmatlari, quruvchilarning tomonidan keyingi yillarda amalga oshirilgan ulkan ishlar va yutuqlarni e'tirof etib o'tdi.

Kasb bayrami munosabati bilan Investitsiyalar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari O.Zaripov II-darajali, Kapital qurilish boshqarmasi Reja-smeta bo'limi boshlig'i U.Hayitov, Kapital qurilish boshqarmasi boshlig'ining komplektlash va shartnomaviy munosabatlar bo'yicha o'rinbosari S.Boqiyev hamda Moliyaviy ishlar departamenti Markaz-

lashtirilgan buxgalteriya xizmati bosh buxgalterning kapital qurilish bo'yicha o'rinbosari R.Irmatovlar III-darajali "Konchilik shuhrati" ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi.

- Kombinatta hech kim e'tibor va rag'batdan chetda emas. Doimiy ravishda taqdirlanib kelinmoqda. Kasb bayrami arafasida men ham ko'krak nishoni bilan taqdirlandim. Bundan, albatta, xursandman. Bu kabi rag'batlar, hech shubhasiz, bizni yanada shijoat bilan ishlashga chorlaydi, - deydi Kapital qurilish boshqarmasi Reja-smeta bo'limi boshlig'i Ulug'bek Hayitov.

JURNALISTLAR TAJRIBA ALMASHDI

Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati har bir yo'nalishda hamkor korxonalar hisoblanadi. Matbuot va ommaviy axborot vositalari sohasida ham mustahkam aloqalar o'rnatilgan. Yaqinda olmaliklik bir guruh jurnalistlar o'zaro tajriba almashish maqsadida kombinatimizga tashrif buyurdi.



Ijodkorlar samimiy ruhda kechgan uchrashuvda har ikkala gigant korxonada olib borilayotgan ishlar, shu bilan birga, matbuot va ommaviy axborot vositalari faoliyati haqida o'zaro fikr almashdi, yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

- Bizning kombinat matbuot xizmatida 38 nafar jurnalist va soha xodimlari ishlaydi. Matbuot xizmati, har kunlik 18 soatlik e'fir vaqtiga ega "OKMK TV" telekanali, 12,4 ming nusxada haftada chop etiladigan "Rangli metallar" hamda 4 ming nusxada ortiq haftada chop etiladigan "3a цветные металлы" gazetasi tahririyatlaridan tarkib topgan. Ular orasida "3a цветные металлы" gazetasi bundan 65 yil avval tashkil topgan otxon nashr hisoblanadi. Korxonamizda bo'layotgan o'zgarishlar haqida jamoatchilik vakillarini xabarador etish maqsadida, axborot, xabar, maqola, ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlash va ulami tekzor yoritib borish asosiy vazifamiz. Buning uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan, - deydi "Rangli metallar" gazetasi muharriri Zahro Rahmonova.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida sayt va ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash, tekzor axborotlar tayyorlash va joylashtirish, "Konchilar hayoti" gazetasini sifat va saviyasi, ishchi-xodimlarning ijodini to'plam shaklida chop etish va boshqa ilg'or tajribalar mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

- Men sohada ishlayotganimga 20 yildan oshdi. Ilk faoliyatimni "OKMK TV" telekanalida boshlaganman. Bu davr jurnalistlik mahoratimni oshirishga katta turtki bergan, - deydi OKMK veb-rusurslar bo'yicha mutaxassisi Sanobar Avzova. - NKMKga ikki kunlik safarimiz taassurotlarga boy bo'ldi. Hamkasblar bilan tanishdik. Tajriba almashdik. Albatta, hamkor korxonaga matbuotidan andoza olgulik jihatlari ko'p ekan. Ayniqsa, ustoz ijodkor Nizomiddin Sadridinovning mahorat maktabi havasimni oshirdi.

Shuningdek, jurnalistlar Navoiy mashinasozlik zavodi, madaniyat va san'at muassasalari faoliyati bilan ham yaqindan tanishdilar.

Azamot ZARIPOV.

YANGI TURDAGI MAHSULOT YANA BITTAGA KO'PAYDI

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasining Nazorat-o'Ichov asboblari va avtomatika markaziy laboratoriyasida mahsulot soni yana bittaga ko'paydi.



Avtomatlashtirilgan nostandart vositalarini tayyorlash laboratoriyasida yuqori kuchlanishli yakka turuvchi tashqi yacheyka (YaKNO-6kV) ishlab chiqarish yo'lga quyildi. Bugungi kunda birinchi mahsulot Shimoliy kon boshqarmasi "Sharqiy" koniga o'rnatilishi rejalashtirilgan. Yakka turuvchi tashqi yacheykani ishlab chiqarish energetika sohasidagi mutaxassislar so'rovnomasi asosida amalga oshirildi.

- Oldingi ish faoliyatim Tarmoqlar va podstantsiyalar sexidagi yuqori kuchlanishli elektr quurilmalarini ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lganligi sababli, yacheykani ishlab chiqarishda biz birinchi o'rinda xavfsizlik talablarini yanada oshirishga e'tibor qaratdik, - deydi laboratoriya boshlig'i Sardor Norbayev. - Biz shunga o'xshash yacheykalarda

mavjud bo'lmagan qo'shimcha mexanik to'siqlar (blokrovkalar) o'rnatib, og'ir muhit sharoitida to'g'ri ishlash chidamliligini oshirdik.

Nazorat-o'Ichov asboblari va avtomatika markaziy laboratoriyasi boshlig'i Ikrom G'aniyev tashabbusi bilan InovatSION ishlarini rivojlantirish guruhi tashkil etilgan. Bu guruh yangi turdagi mahsulotlarni ko'paytirishga o'zining hissasini qo'shib kelmog'ida. Ular tomonidan keyingi chorakda 1-gidrometallurgiya zavodiga, "Muruntov" konida ishlayotgan EKG ekskavatorlar uchun yacheykalar, reversli ko'tarish mexanizmi uchun shkaf va reaktiv quvvatni kompensatsiya kiluvchi quurilmalarni ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.

■ Istiqlol inshootlarida

Qizilqumda saratonda harorat ellik darajadan oshsa, qish chillasida minus 25 darajagacha tushib ketadi. O'ta kontinental iqlim sharoitiga ega cho'l bag'rida yashash va mehnat qilishning o'zi qahramonlik. "Auminzo-Amantoy" konini o'zlashtirishda ishtirok etayotganlarni ham tom ma'noda "zamonamiz qahramonlari", deya atash mumkin. Chunki, ular halol mehnati, matonati va jasorati bilan Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga munosib hissa qo'shmoqda.

REJA ANIQ, MARRA YUKSAK

1975-yilda tog'-kon ma'danlari zaxiralarini aniqlash maqsadida, Auminzo-Beltov ma'danli mintaqasidagi Kuldjuktov, Amantoy, Beltov, Kolchiktov, Jetimov, Saribotir tog'larida va ularga tutash tog'li balandliklarda jadal qidiruv ishlari boshlangan edi. Qariyb yarim asr davomida odam oyog'i yetmagan sahroda geologik-qidiruv ishlari olib borildi. Izlanishlar natijasida oltin va kumushning 20 dan ortiq konlar zaxiralarini aniqlandi. "Auminzo-Amantoy" koni katta zaxiraga ega kon, deb topildi.

- Qidiruv ishlarini olib borishda jinlar va ma'danlarning ichki tuzilishi, morfologiyasi, tarkibi va minerallashgan hududlarining chuqurlikdagi va zarba bo'ylab fazoviy holatiga katta ahamiyat beriladi, - deydi Muruntov dala ekspeditsiyasi bosh geologi Xurshid Janiyev. - Jamoamiz a'zolari tomonidan Auminzotov, Beltov va Amantaytov tog' tizmalarida va "Markaziy-Shimoliy Amantaytov" karyeri atrofidagi hududlarda 9 ta loyiha bo'yicha qidiruv ishlari amalga oshirildi. Maydonlarda olib borilgan o'riganish ishlari natijasida oltin konlarining katta ko'lami borligi tasdiqlandi. Bu esa geologiya-qidiruv ishlarini yanada faollashtirish barobarida 2033-yilgacha konda 25 ta karyerini o'zlashtirishga asos bo'ldi.

2017-yilda "Auminzo-Amantoy" koni tasarrufidagi "Uzunbuloq" va "G'arbiy Amantaytov" kar'larida qazish ishlari boshlandi. Albatta, yangi kon – yangi jamoa demakdir. Malakali muhandislar, katta tajribaga ega konchi va metallurglar jalb etildi. Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya kabi davlatlarning jahonga mashhur kompaniyalarida ishlab chiqarilgan ekskavator va burg'ilash uskunalaridan foydalanila boshlandi. Dastlab ikkita kar'erdagi qazib olish ishlari boshlangan bo'lsa, oradan bir yil o'tib, bir vaqtning o'zida beshta, so'nggi yilda esa sakkizta kar'erdagi qazib olish ishlari jadal tus oldi. Ayni vaqtda kon negizida bosqichma-bosqich oksidlangan va sulfidli, o'rta va yirik ma'danli o'n to'rtta maydonda oltin ma'danlarini qazib olish ishlari olib borilmoqda. Ma'dan qazib olish quvvati bir necha barobar oshgandan so'ng ishchilarga ham ko'p smenali ish tashkil qilindi. Bugun yuzlab og'ir kon texnikalarida "Markaziy-Shimoliy Amantaytov", "Asaukak", "Tomdibuloq", "Nuqrakon", "Barxanli" va "Turbay" karyerlaridan ma'dan qazib olinmoqda.

Bugungi kunda o'zining ish o'miga ega bo'lgan har bir insonning ortida oilasi, farzandlari, ota-onasi, yaqinlari borligini hisobga oladigan bo'lsak, qancha xonadonga quvonch kirayotgani, qancha odamning ruhi ko'tarilib, ularda hayotga, kelajakka ishonch paydo bo'layotganini his etamiz.

Murodilla Mardonov Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetini tugatgandan so'ng yosh mu-



Dastlab ikkita kar'erdagi qazib olish ishlari boshlangan bo'lsa, oradan bir yil o'tib, bir vaqtning o'zida beshta, so'nggi yilda esa sakkizta kar'erdagi qazib olish ishlari jadal tus oldi. Ayni vaqtda kon negizida bosqichma-bosqich oksidlangan va sulfidli, o'rta va yirik ma'danli o'n to'rtta maydonda oltin ma'danlarini qazib olish ishlari olib borilmoqda.

taxassis sifatida nazorat-o'Ichov asboblari va avtomatika uchashtasida ish boshladi.

- Ikki yildan buyon "Auminzo-Amantoy", konida ishlayapman, - deydi M.Mardonov. - Ishim o'zimga yoqadi. Mening vazifam – tajriba sanoat qurilmasi yordamida kumush ajratib olish kompleksidagi barcha texnologik jarayonlar ko'rsatkichlarining suyuqlik tarkibini tahlil qilish, vaqt rejalari, sath, sarf, harorat, bosim kabilarni operator paneli va kompyuteriga o'zaro bog'lashni ta'minlash va nazorat qilishdan iborat. Jamoamiz a'zolari ham bir topshiriqni vaqtda va sifati bajarishga odatlanganmiz.

Murodilla kabi yosh mutaxassislarning faoliyatini bir zum kuzatdik. Kon laboratoriyasidagi quritish va eritish pechlarini haroratni avtomatlashtirilgan, kompressor bosim ko'rsatkichlari belgilangan miqdorlar orasida avtomatik tarzda boshqariladi. Konda asosiy ishlab chiqarish sexlari bilan birga portlatish ishlari, kon uskunalarini ta'mirlash, energetika uchashtasidagi hamda texnologik laboratoriya faoliyat ko'rsatmoqda.

Joriy yilda oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilaridan 40 nafari yosh mutaxassis sifatida ishga qabul qilindi. Ularning malakasini oshirish maqsadida "Ustoz-shogird" an'anisiga asosan ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan xodimlarga birkiritildi. Konda konchilik va metallurgiya sohasida yetarli tajriba orttirgan, malakali mutaxassislar ko'p. Ular sohaga kirib kelayotgan yoshlarga mas'uliyat bilan ishlashni o'rgatayotganliklari bois, kon jamoasi rejalarni o'z vaqtida bajarmoqda.

"Auminzo-Amantoy" koni yurtimiz sanoatida iqtisodiy samaradorlik oshirishga xizmat qilmoqda. Yangi ochilgan konlar negizida yangi zavodlar ham qurilib, ishga tushirilib, ishlab chiqarish manzillari yil sayin kengayib bormoqda. Bir so'z bilan aytganda, "Auminzo-Amantoy" koni mamlakatimiz iqtisodiyotining istiqbolli konlaridan biriga aylanyapti.

Nafosat KENJAYEVA.

■ Xabar

"NAVOIYURAN" DAVLAT KORXONASI:

FRS moliyaviy xisobotlarga "Katta to'rtlik" auditorlari ijobiy xulosa berdi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi "2022-2030-yillarda "Navoiyuran" DKda uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, korxonada keng ko'lami transformatsiya jarayonlari boshlangan.

Korxonada ESG tamoyillarini joriy etish maqsadida korxonaning xalqaro standartlarga moslashtirish, korxonaning ishlab chiqarish, moliya, buxgalteriya, omborlarni, kadrlar faoliyati va boshqa jarayonlarining raqamlashtirish maqsadida "SCADA Dashboard" ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil tizimi va resurslarni boshqarish tizimi "ERP"ni hamda zamonaviy inson resurslarini boshqarish (HR) tizimini joriy etish, uran zaxiralarini Avstraliyaning JORC kodeksi talablariga muvofiq baholash, shuningdek moliyaviy hisobotlarni IFRSga (Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari) o'tkazish va ularni xalqaro kredit reytingini olish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Mazkur topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida, korxonaning 2022-2023-yillar uchun moliyaviy hisobotlari IFRS standartlarini "birinchi marta qo'llash" ("First time adoption") talablarini asosida tayyorlandi.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar talabidan kelib chiqib, korxonaga balansidagi asosiy konlarning (17 ta) uran zaxiralarini "SRK Consulting" xalqaro kompaniyasi tomonidan Avstraliyaning JORC kodeksi talablariga muvofiq baholandi va zaxiralar miqdori 70,7 ming tonna deb topildi. Shuningdek, uzoq muddatli aktivlarning haqqoniy bahosi ("Fair Value") aniqlanib, 2023-yil yakuni bilan ularning qiymati qariyb 6 trillion so'mni tashkil etdi.

IFRS standartlariga muvofiq korxonaning 2023-yil uchun sof foydasi 2,9 trillion so'mni tashkil etgani tasdiqlandi.

"Navoiyuran" davlat korxonasi mutaxassislari tomonidan IFRS standartlari ishlab chiqilgan 2022-2023-yillar moliyaviy hisobotlari "Katta to'rtlik" safiga kiruvchi "Deloitte" auditorlik tashkiloti tomonidan auditdan o'tkazildi va hisobotlarga ijobiy xulosa berildi.

"Katta to'rtlik" auditor tashkilotlarining bunday xulosasi korxonaning buxgalteriya, hisob-kitob, moliya tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilganligini, tayyorlangan moliyaviy hisobotlar haqiqatga mosligini va ushbu hisobotlar asosida korxonaga investitsiya loyihalariga davlat kafolatisiz mablag' jalb qilish imkonligini anglatadi.

Korxonaning Loyiha ofisi ma'lumotlariga ko'ra, moliya yo'nalishidagi transformatsiya jarayonlarining keyingi bosqichi bu – Fitch Ratings agentligidan kredit reytingini qo'lga kiritish hisoblanadi.

Prezident qaroriga muvofiq, "Navoiyuran" davlat korxonasi xalqaro reyting agentliklarining biridan kredit reytingini qo'lga kiritish joriy yilning oktabr oyiga belgilangan.

"Navoiyuran" davlat korxonasi axborot PR xizmati.

■ **Mehnat jamoalarida**

MAS'ULIYATLI ISHLARNING SAMARALI NATIJALARI

Konchilik va metallurgiya sanoati tizimidagi har bir bo'linma faoliyati go'yo zanjir misol bir-biriga bog'langan. Malakali mutaxassislar bilan yelkama-yelka ish olib borayotgan bilimli va salohiyatli yosh mutaxassislarining aql-zakovati bilan kombinat boshqarmalarida zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda. Yangi quriladigan obyektlarda uskunalarini ishga tushirish va montaj qilish ishlarini amalga oshiradigan Markaziy kon boshqarmasi tarkibidagi Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika markaziy laboratoriyasi 1967-yilda tashkil etilgan bo'lib, ayni vaqtda 82 nafar muhandis va ishchi-xodimlardan iborat turli kasb vakillari 7 ta guruhda faoliyat olib bormoqda.



Laboratoriya jamoasi Markaziy kon boshqarmasi tarkibiy bo'linmalarida nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika uskunalarini o'rnatib, ishga tushirish va uzluksiz ishlashini ta'minlab, yuk ko'tarish kranlarining xavfsizlik moslamalari va elektr jihozlarini, gorizontal charchlash dastgohlari va boshqa qurilmalarini ham ta'mirlab, yillik sozlash va nazoratdan o'tkazish sinovlari-

ni, kombinat tasarrufidagi barcha boshqarma va korxonalarining issiqlik texnikasi, bosim, sarf, fizika-kimyoviy, elektr va radio o'lchash vositalarini, gaz-mash'ala qurilmalarini ta'mirlash ishlarini bajaradi.

- Guruhlarimizning yetakchilari ko'plab ishlab chiqarish sexlarida va yangi qurilgan tog'-kon inshootlarida tayyorgarlikdan o'tgan yuqori malakali va bilimli mutaxassislardir, - deydi laboratoriya boshlig'i o'rinbosari Axrorjon Tolibov. - Har bir yangi texnologiyaning sifatli va samarali ishlashi avtomatika uskunalarini o'rnatib, ishga tushirish va uzluksiz ishlashini ta'minlashga bog'liq. Jamoamiz mutaxassislari "Muruntov" konidagi KNK-270 tik-qiya konveyer majmuasining avtomatik boshqaruv tizimi, "Auminzo-Amantoy" konidagi qayta yuklash nuqtalarini rekonstruksiya qilish ishlari, 2-, 5- va 7-gidrometallurgiya zavodlarining texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish va avtomatik boshqaruv tizimlarini o'z vaqtida sifatli ishga tushirishda faol qatnashib kelmoqda.

Zarafshon shahridagi Tibbiy-sanitariya qismi bo'linmalarida o'rnatilgan zamonaviy tibbiy raqamli uskunalarini har doim soz holatda ishlab turishini ta'minlash ham jamoa zimmasida. Shahar obyektlarini avtomatlashtirish guruhiga malakali

mutaxassis Akbar Xolbayev boshchilik qilayotgan. Guruh vakillarining aksariyati mahalliy yosh kadrlar hisoblanadi.

1999-yilda Navoiy davlat konchilik institutini tugatib, yosh mutaxassis sifatida laboratoriyaga ishga kelgan Akbar Isakulovich ilk ish faoliyatini nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika chilangarligidan boshlagan.



- Ba'zan inson ortga boqib, bosib o'tgan umr yo'larini sarhisob qilgisi keladi. Taqdir inoyati bilan oltintoparlar shahrida umrguzaronlik qilib, mamlakatimizning gigant korxonalaridan birida faoliyat yuritayotganimga ham 25 yil bo'libdi. Men shu yerda ishlab, o'z kasbim ortidan jamoada obro' topdim. Sohadagi faoliyatim rahbariyat tomonidan munosib rag'batlantirilib borilmoqda. Har doim zimmandam ulkan vazifalar turganini his qilgan holda faoliyat olib boryapman. Ayni vaqtda taqdirini shu soha bilan bog'lashni niyat qilgan yigitlarga ustozlik qilayapman, - deydi A.Xolbayev. Darhaqiqat, konchi va metallurgilarning shah-

salomatligiga xizmat ko'rsatib kelayotgan Zarafshon shahar Tibbiy-sanitariya qismi bo'linmalarida o'rnatilgan raqamli kompyuter tomografiyasi, raqamli tibbiy rentgen uskunalarini, zamonaviy ultra tovushli tekshiruv hamda o'pkaga sun'iy havo berish apparatlarini va shu kabi bir qancha zamonaviy tibbiyot uskunalarini har doim soz holatda ishlab turishini ta'minlash bevosita ularning aql-zakovatiga bog'liq. Shu bois, mutaxassislar tibbiyot texnikasi, ya'ni, tibbiyot uskunalarini ta'mirlash bo'yicha poytaxtda o'z malakalarini oshirib qaytishmoqda. Shunday xodimlardan biri chilangar Murat Smenovdir. U yoshligidan nazorat-o'lchov asboblari avtomatlashtirish va sozlashga qiziqdi. Sohadagi ilk ko'nikmalarni Zarafshon kasb-hunar kollejida olgan bo'lsa, hozirda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining 4-bosqichida o'qishini davom ettirmoqda. Yaqinda Murat va jamoaning bir guruhi mutaxassislari yangi zamonaviy raqamli kompyuter tomografiyasini hamda raqamli magnit rezonans tomografiyasini ishga tushirishdi. Ular foydalanishga topshirilgan har bir zamonaviy tibbiyot uskunalarining uzluksiz ishlashini ham ta'minlashmoqda.

Markaziy laboratoriyaning o'lchash vositalarini ta'mirlash guruhi xodimlari o'z ishining tajribali mutaxassislari hisoblanishadi. Yosh muhandislar Alimurod Alimov va Sherzod Davlatovlar respublikamizning ilmiy markazlarida o'z malakalarini oshirib kelgan.

- Laboratoriyaning "Zarafshon" maydonida 2009 yilda Rossiya texnologiyasi asosida ishlab chiqarilgan "AKFA-200 A" rusumli suv hisoblagichlar va sarf-o'lchash asboblari qiyoslashdan o'tkazish uskunasi o'rnatildi. Suyuqlik va gazlarning turli xil oqim va miqdor o'zgartirgichlarini hamda elektr hisoblagichlarini tekshirish



va kalibrash uchun metrologik talablarga javob beradigan, zamonaviy avtomatlashtirilgan moslamalar bilan jihozlangan mazkur uskunada bir vaqtning o'zida 9 ta hisoblagichni qiyoslash imkoniyati mavjud. Hozirda kuniga kombinat tizimidagi 40 dan ortiq, shu bilan birga, Navoiy viloyatidagi korxonada va tashkilotlardan keladigan hisoblagich va sarf-o'lchash asboblari qiyoslab kelmoqdamiz, - deydi guruh rahbari Baxtiyor Normurodov.

Har bir bo'linma rivojida rahbar salohiyatining alohida o'rni bor, albatta. 2011-yildan hozirgi kunga qadar laboratoriyani Bahodir Ishkuvatov boshqarib kelmoqda. Shuningdek, malakali mutaxassislar hisoblangan guruh rahbarlari Ye.Shteyn, U.Nazarov, Z.Xamroyevlar sohaga kelayotgan yosh ishchi-xodimlarga kasbiy mahoratlarini o'rgatishmoqda. Ularning yuqori malakasi, tashkilotchilik qobiliyati va o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishi bois korxonaning sanoat maydonlaridagi bo'linma va uchastkalarida g'oyatda murakkab ishlab chiqarish jarayonlari bir maromda davom etmoqda.

Nafosat ZIYOYEVA.

■ **Hamkasb haqida so'z**

TAQDIR MO'JIZASI

Tuman markazidan o'ttiz besh kilometr uzoqlikdagi "Sharqiy" ochiq usulda qazib olish koni. Ilm sohiblarining sa'y-harakatlari va konchi azamatlarining mashaqqatli mehnatlari bilan bu yerda minglab tonna ma'dan qazib olinmoqda. Vatan iqtisodiyotini mustahkamlash yo'lidagi fidokorona mehnatga yarashiq rag'batni ham kombinat bo'linmalaridagi xodimlar yuz-ko'zidan, yurish-turishidan anglash qiyin emas. Tafakkuri va shuuri uyg'oq odamga biydek sahrodami yo zangori vohadami, qayerda bo'lmasin, quyosh bilan boshlangan har bir tong baxt va farovon hayotni his etish uchun yetarli! Qahramonimiz ham samimiy va oddiylik fazilatlarini ila qalbi shukurdan naqsh olgan inson, konchilar bilan bir safda mehnat qilayotganidan faxrlanadigan xodim, ajoyib ona va yaxshi turmush o'rtoqdir.



ta-kichik toshlar maydalash qurilmasiga uzatiladi, qurilmada maydalangan toshlar, endi, konveyer lentasida elakka duch keladi. Men biroq mubolag' bilan tasvirlayotganim - g'oyat mas'uliyatli va ilmiy-texnologik jarayon Zuhroxon Abdurahmonova, Ulbosin Iqimbekova, Go'zal Ramazonova va Zina Zarbusinova kabi nozik xilqat vakillarining nafis barmoqlari orqali avtomatlashtirilgan dastur yordamida boshqarilib, nazorat qilinib, kuzatib boriladi. "Yurt xazinasi kutayotgan oltinni saralash yo'lida birgina diqqatning chalg'ishi yoxud soniyachcha e'tiborsizlik kechirilmasdir", - deydi Zuhra opa ish jarayonidan ko'zini uzmay. U shu qadar mas'uliyat va zavq bilan ishga sho'ng'ib ketgan. Katta ishda oz bo'lsa-da hissa qo'shayotganidan huzur tuyib mehnat qilmoqda.

Ko'nglida ilm olishga rag'batli, informatika, axborot texnologiyalariga mayli kuchli bo'lgan Zuhroxon Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan inson qadri siyosati, millat qizlari va ayollarining ma'rifatli, oliy ma'lumotli bo'lishi uchun yaratilgan quylaylik sababli 2022-yilda, 46 yoshida talabalik baxtiga musharraf bo'ldi. Hartugul, Zuhra opa bir etar nevaralar qurshovida qolganida talaba bo'lishni yoki ulkan ilm va texnologiyaga asoslangan korxonada ishlashni, qulog'idagi tillo halqasining shu shakliga yetguniga qadar kechadigan ulkan mehnatni tush ko'rmasgan, xayol qilmagan, biroq mehnatning rag'batiga, shukur ortidan keladigan mo'jizalarga ishonagan. Uning kasbi ortidan topgan baxti haqiqatan ham mo'jiza! Bugun birgina uning misolida kombinatning ko'plab mo'jizaviy taqdir sohibalari - baxt egalari haqida birozgina to'xtalдик, xolos. Ish jarayoniga singib ketgan Zuhra orani ko'p bezovta qilmay, xayrlashib yo'lga chiqdim. Kondan qaytarkanman, avtobus oynasidan ukpar bulutlarga termulgancha sanoat maydonlarida mehnat qilayotgan opa-singillarimiz uchun beg'ubor tilaklarimni shaffof bulutlardan yasalgan qanotlarga bog'lab, Yaratgan huzuriga yo'llab qo'ydim. Axir, har bir bandaning boshqa bir zamondoshi uchun qilgan yaxshi niyati ijobat, bu - va'da! Va'da ortida esa mo'jizalar bor!

Nilufar MUYDINOVA, Shimoliy kon boshqarmasi mutaxassisi.

■ **Люди комбината**

В далекие 60-е годы прилетали на вертолетах геологи, осматривали горы Гобдунтау и Марджанбулак, вели съемочные работы. Все эти события происходили на глазах местной детворы Галляральского района Джизакской области. Одному мальчишке особенно любопытно было наблюдать за геологами, они казались ему такими интересными и умными, а сама профессия-загадочной, необыкновенной. В сердце закружилась мечта, вырасти и стать геологом. Окончив среднюю школу, Бахриддин Лапасов поступил на вечернее отделение института связи в Ташкенте, но душа требовала другого.

ЖИЗНЬ ГЕОЛОГА

В 1970 году призван в армию, служил в артиллерийских войсках в Казахстане. После демобилизации в 1972 году вернулся в столицу, но не на прежнее место учебы. Ушел из института ради будущей профессии, которая стала смыслом всей его жизни. Студенческие годы на геологоразведочном факультете Ташкентского политехнического института, пожалуй, самое интересное, увлекательное и золотое время, которое Бахриддин Лапасов вспоминает с теплом и нежной грустью.

Трудовую деятельность начал в 1977 году участковым геологом карьера строящегося Марджанбулакского золотообывающего рудника. Возводилась золотоизвлекательная фабрика, и одновременно вскрывали запасы месторождения к отработке. Бахриддин Лапасов одним из первых геологов, приехавших в Марджанбулак по направлению, начал эксплуатационную разведку в карьере месторождения. Он обеспечивал нормативы подготовленных и готовых к выемке запасов руды и золота. 4 октября 1980 года при участии Шарафа Рашидова, видного государственного деятеля Узбекистана, торжественно запустили фабрику в работу!

С вводом фабрики в эксплуатацию, на переработку отружали руду с качественным содержанием, - рассказывает Б.Лапасов. - Тогда я руководил геологической службой рудника, сначала старшим геологом, позже главным геологом. В то время на Марджанбулакском рудном поле разведочные работы велись Галляральской экспедицией объединения «Самаркандгеологии». С геологами экспедиции проводились совместные работы по достоверности отработываемых запасов месторождения и укреплению минерально-сырьевой базы рудника. До 1989 года я трудился на Марджанбулакском золотообывающем руднике.

Бахриддин Лапасов с уважением и гордостью рассказывает о совместной работе с Кувандиком Санакуловым, когда он руководил фабрикой: «Встречались по утрам на рудной площадке, следили за состоянием рудообеспечения, на совещаниях решали производственные вопросы. Благодаря слаженной, дружной работе геологов рудника и технологов извлекательной фабрики месячные и годовые планы выпуска драгоценного металла перевыполнялись, рудник был в числе передовиков среди гор-



Фото Виктора ЯКОВЛЕВА.

нодобывающих предприятий объединения «Узбекзолото»!

В 1989 году Бахриддин Лапасов избран председателем Марджанбулакского городского Совета народных депутатов. Через 5 лет вернулся в родной коллектив Марджанбулакского рудника главным инженером, а позже переведен главным геологом. С 1999 по 2002 годы работал в старательской артели «Кызылкум» подземным геологом на участке «Каракутан». С 1 июля 2002 года участок присоединили к Навойскому ГМК, где Бахриддин Лапасов работал главным геологом до 2010 года. Следующие 12 лет он трудился в Южном рудоуправлении, на ГМЗ-1, а с 2022 года Бахриддин Лапасович переводится ведущим инженером-геологом в геологический отдел управления АО «НГМК». И сразу приступает к ответственным задачам, которые ставит перед ним руководство.

- За прошедший период с коллегами проанализировали состояние запасов по участку «Урталик» (подземный) и рудника «Гужумсай» Южного рудоуправления, приняли действенные меры по наращиванию запасов на глубоких горизонтах подземным бурением скважин, - делится Б.Лапасов. - На участке «Урталик» работу начали с 2024 года и на последнем горизонте +660 метров подготовлена камера для бурового станка. В прошлом году нами проведен анализ состояния и движения запасов по месторождениям и участкам Зиаздинского рудного поля. По состоянию на 1 января 2024 года выявлен значительный прирост - десятки тонн золота, по всему рудному полю, включая и подземные действующие участки. Совместно с Ильхомом

Хамроевым - заместителем главного геолога комбината, разработали программу «Перспективы освоения и развития геологоразведочных работ по золоторудным месторождениям и участкам Зиаздинского рудного поля до 2030 года» с книгой-альбомом. В программе затронуты вопросы планомерного проведения разведочных работ по месторождениям, что позволяет получить прирост запасов для укрепления минерально-сырьевой базы РУ «Кызылкум» (ГМЗ-1) также дает возможность увеличить переработку руд из запасов рудного поля, как из подземных, так и открытых горных работ. Нами в 2023 году завершен отчет «Сопоставление данных разведки и эксплуатации в пределах контуров запасов, утвержденных в ГКЗ» по месторождению Аристантау для списания запасов. На основании положения «О порядке списания с баланса пользователя недр запасов полезных ископаемых, добытых и потерянных в процессе добычи» впервые мною разработана и утверждена главным инженером АО «НГМК» Атабеком Инжановым методика разработки «Сопоставление данных разведки и эксплуатации в пределах контуров запасов, утвержденных ГКЗ». Методика служит пособием для пользования в производственной деятельности геологической службы рудоуправлений по оформлению списания запасов.

Самоотверженный труд был высоко оценен руководством комбината, Бахриддин Лапасович награжден нагрудным знаком «Горняцкая слава» III и II степеней. Почти полвека он доказывает верность выбранному делу, неравнодушные к судьбе комбината.

Ситора ЯТИМОВА.

Zuhroxon Abdurahmonova 1976-yilda vodiyning Andijonida tug'ilgan. U oiladagi o'n bir nafar farzandning beshinchisi bo'lib, Fotima bilan egizak. Otasi avtobus haydovchisi, onasi uy bekasi, o'sha davrning kolxoz dalalarida dehqonchilik bilan shug'ullanadigan oddiy o'zbek oilasida katta bo'ldi. Qo'li rul chambargada, e'tibori yo'lida bo'lgan otasining qalbi ilm-ma'rifatga, ziyoga chog'langanligidan halol rizq, odamiylik kabi fazilatlar bu nuroniy otaxondan dilbandlariga qoldirilgan eng yaxshi meros bo'ldi. Bog'chadan so'ng, yetaklashib maktabga borishgan Fotima va Zuhra avval, yoshi yetmaydi qabilida birinchi sinfga qabul qilishmagan, ammo ikki qizaloqning yig'isi maktab direktorining qarorini o'zgartirib, o'sha yili o'quvchi bo'lishgan ekan. Egizaklar maktab bilan birga, uy ishlardan tashqari, dalalarda, qishlog'iga tutash qo'shni Qirg'iziston tomonlarda sholi ekishgani, paxta terganlari gashli mehnat bo'lganini kulib-kulib eslaydi. Yoshlikdagi mehnatga chiniquv bugungi baxt va rohatga yo'l ochgan bo'lsa, ajab emas!

Uchquduq shahriga, Rohatoy ismi jiyani ko'rganig kelgan Zuhroxonning keyingi taqdiri mana shu bepoyon cho'lar bilan tutashib ketdi. Bo'lajak turmush o'rtog'i Ravshanbek Zuhroxondek odobli qizni qo'ldan chiqarmadi, Andijonga sovchi yubordi. O'zbekchiligidamizda qizni yaxshi joydan qoldirmaslik zarur, kabi yoziqlagan qoidalimizga muvofiq, Uchquduqdan - yaxshi insonlarning farzandidan kelgan sovchi oq ro'molcha bilan qaytganida vodiy va Qizilqum orasidagi masofalar qisqarib ketdi, go'yo! 1995-yilda turmush qurilar, birin-кетин qiz-o'g'illar dunyoga kelishdi. Zuhroxonning oila va farzandlar bilan o'rالشob qolgani, bundan tashqari, kombinat tizimida rusiyzabon muhit hukmronligi bois ham ishlab, ro'zorg'oga ko'maklashish to'g'risida orzu qilishga vaqti bo'lmadi. Ulug'larning rahnamo etib tanlanishi

ortida Yaratganning bandalariga beqiyos mehribonligi bo'ladi. Quvondiq Sanaqulovning kombinat bosh direktori etib tayinlanishlari bu ulkan korxonada shu tuproqda tug'ilgan minglab qorako'zlarning ham faoliyat yuritishlariga kafolat bo'ldi, desam haq so'zni aytgan bo'laman. Zuhroxon kabi ilmga ixlosli bor, biroq ushbu salohiyatini rivojlantirishga sharoiti bo'lmagan ko'plab xotin-qizlar Navoiy kon-metallurgiya kombinatidek gigant korxonada ishlash baxtiga muyassar bo'ldilar.

Kombinat har bir xodimiga imkoniyatlarini berish uchun ochadigan manzil. Ana shunday imkoniyatlardan biri - xodimlarni kasbga o'qitishdir. 2007 yilda "Sharqiy" koniga ishga qabul qilingan Zuhroxon Abdurahmonova ushbu imkoniyatdan foydalanib, boshqaruv puli operatori kasbi bo'yicha ta'lim oldi va hozirga qadar 11-sonli ma'danni maydalash va boyitish uchastkasida ushbu kasb bo'yicha mehnat qilmoqda. U faoliyatida hamkasblari bilan xushmuomala va samimiy. Bir qarashda, bu nozikta'ay ayolning oltinni dunyoga keltirish jarayoniga qanday bog'liqligi bor, dersiz?!

Shovqindan qulog'ingiz qomatga keladigan 11-sonli ma'danni maydalash va boyitish uchastkasida bo'lganidamda uning ishlash jarayonini kuzata turib, zamin bag'ridagi ma'danni qazib chiqarib, undan oltin olish oson emasligiga yana bir bor ishonch hosil qildim. Yayoqduq cho'l va bu bepoyon kengliklarda tabiatning injiqliklari ham chegara bilmas, yoziqning jaziramasini, qishning ayovsiz sovuqlarini aytmay qo'yaqolay. Insonga berilgan iqtidorning in'ikosi o'laroq, ilm va texnologiyaga uyg'unlikda bunyod etilgan uchastkada ish jarayoni zanjir kabi uzviy. Kar'er hududlaridan qazib olinib, ulkan texnikalar tashib kelgan toshlar ushbu uchastkaning kompleks texnologiyasi ko'magida maydalalanib, saragisarakka, puchagi-puchakka ajratiladi. Qabul qilish bunkerini, undan so'ng, kat-

■ Dolzarb mavzuda suhbat

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo'lishi va uning faoliyati davomiyli bilan bevosita bog'liqdir. Soliqlik tushunchasi tor ma'noda davlat ixtiyoriga soliq to'lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi. Biz "NKMK" aksiyadorlik jamiyati soliq hisobi bo'lim boshlig'i Mardon Jabborovdan soliq tizimidagi iqtisodiy islohotlar, kombinat tomonidan respublika budjetiga to'lanadigan soliqlar ulushi haqida gapirib berishni so'radik.



SOLIQ TIZIMI: IQTISODIY ISLOHOTLAR YANADA TAKOMILLASHTIRILMOQDA

- Davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarini bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir. Chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha subyektlar ham real sektorda, ya'ni, ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatmaydi. Aniqroq qilib aytganda, jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshqalar) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi.

Soliqlarning amal qilishini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalarini.

Davlatning funksiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qolga borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bularga bizning respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini tashkil qilish kabilari kiradi. Davlat kuchli ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, talabalar, ko'p bolali onalar va boshqalarni mablag' bilan ta'minlash zarurligini anglab, ayrim cheklangan tovarlar bahosidagi farqni budjet hisobidan qoplaydi va undan tashqari mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar ko'rsatadi.

Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalari-dan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliqlik tizimini tartibga solish va mukammallashtirish moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishiga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi, imtiyozlar yordamida esa aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda barcha sohalarida amalga oshiriladigan islohotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi, desak aslo mulohaza bo'lmaydi.

Zero, bunga davlat rahbarining: "2030-yilga borib, O'zbekiston jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin egallaydi. Bunga, avvalo, xususiy sektorni rag'batlantirish va uning ulushini oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishish ko'zda tutilmoqda" - degan so'zlari yaqqol dalil bo'la oladi.

Hozirgi sharoitda mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, soliq tizimidagi iqtisodiy islohotlarni yanada takomillashtirish va uni amalga oshirish, soliqlarning tartibga solish funksiyasini kuchaytirish, kichik biznes subyektlarini rivojlantirish va uning iqtisodiyotda turgan o'rnini yanada mustahkamlash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim masalalariga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, mamlakatda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, jumladan, energetika, sanoat, mashinasozlik, tog'-kon sanoati, qishloq xo'jaligi kabi sohalarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash hisobiga kelgusi besh yilda aholi jon

boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 barobar oshirish, 2030-yilga borib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 000 dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Sanoat sohasini rivojlantirish siyosatida belgilangan islohotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekistonda bundan buyon milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va sanoatdagi ishlab chiqarish hajmini 40 foizga ko'paytirish orqali yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish, xususan, oltin ishlab chiqarish hajmini 26 foizga, kumush ishlab chiqarishni 42 foizga oshirish, mis va qora metallardan tayyorlangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni 2 barobarga ko'paytirish maqsadida metallurgiya sanoatida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish mo'ljallangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda yer qa'ridan foydalanilgan uchun soliq solish sohasida Prezident Farmoni va Soliqlik kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida foydali qazilmalarning eng ko'p investitsiya talab qiladigan turlari bo'yicha uning stavkalari sezilarli darajada pasaytirildi. Masalan, gaz uchun ular 3 baravarga (30 foizdan 10 foizga), neft uchun 2 barobarga (20 foizdan 10 foizga), oltin va mis uchun 30 foizga, uran uchun 20 foizga kamaytirildi. Bu yer qa'ridan foydalanuvchi foydali qazilmalarni qazib olish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun amalga oshirildi, chunki ularni qazib olish ko'proq xarajatlarni talab qiladi.

- "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJga soliqlar to'lovi bo'yicha imtiyozlar berilganmi?

- Ha, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJga ham O'zbekiston Respublikasi Soliqlik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida soliqlar bo'yicha bir qator yengilliklar va imtiyozlar berilgan.

Xususan, Soliqlik kodeksining tegishli moddalariga asosan konlar va karyerlar band etgan hamda lalmi-yaylov zonada joylashgan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilagan soliq stavkalariga nisbatan koeffitsiyentlar qo'llangan holda to'lab kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari ijrosi taahhullarida 2023 yil yakuniga ko'ra "NKMK" AJ tomonidan to'langan soliqlar ulushi respublika budjetidagi jami tushumning 16,7 foizini tashkil qilmoqda.

- Bo'lim faoliyati haqida ham gapirib bersangiz.

- Ayni vaqtda bo'limda to'rt nafar xodim faoliyat yuritmoqda. Bo'lim tomonidan davlat budjetiga soliqlar va yig'irlarning to'g'ri hisoblanishi, ularning Soliqlik kodeksida belgilangan muddatlarda to'lanishi va soliq bo'yicha hisobotlarning qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etilishi amalga oshiriladi. Kombinatlarning hisobotlari qabul qilinib, yig'irma hisobot shakllantiriladi va davlat soliq organlariga taqdim etiladi. Suv resurslaridan foydalanilgan uchun soliq bo'yicha 15 ta hududiy soliq organlariga, yer soliqlari bo'yicha 17 ta hududiy soliq organlariga va mulk solig'i bo'yicha 17 ta soliq organlariga hisobot taqdim etilmoqda.

Bugungi kunda soliq xizmati mamlakatimizning ilg'or va tadbirkorlarga xizmat qilishga yo'naltirilgan sohalaridan biriga aylangan. O'tgan davrda soliq xizmati organlarining raqamli platformalari barpo etildi, ilg'or texnologiyalar va soliq ma'muriyatchiligining samarali vositalari faol joriy etilmoqda, bu, fuqarolarning ham, ishlabarmon hamjamiyatning ham davlat bilan o'zaro hamkorligini oson va qulay qilishga qaratilgan. Yangi elektron xizmatlar va xizmatlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda, aholining huquqiy savodxonligini oshirish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

A.AXMEDOVA
suhbatlashdi.

■ Hayot chorrahalarida

ONANA

Tun... Sokin yomg'irli tun. Negadir Gulshodaning ko'ngli bezovta. Tunngi smenaga ishga ketgan turmush o'rtog'iga qo'ng'iroq qildi. "Men yaxshiman, ishlayapman. Yaxshi dam ol!" degan qisqa javob ham ko'nglini yoritmaydi. Narigi uyda uxlayotgan o'g'illaridan xabar oldi. "Jahongirchi, u ham uxlayaptimikan?", deya beixtiyor pichirladi. Qo'ng'iroq qilsammi, degan o'y bilan soatga qaradi. Yarim tunda yangasiga nima deb qo'ng'iroq qilishini o'yab, tong otishini kutdi. Soat millari go'yo uning sabrini sinayotgandek sekin-astalik bilan "chiq-chiq"lardir. Uyuq dorisini ichib, uxlashga harakat qildi. "Meni kechir, meni kechir..." deya alahisrab gapirayotganidan cho'chib uyg'ondi. Yarim soat uxlabmanku, deya yana qayta soatga qaradi. Yarim tun. Soat millari 2, 3, 4, 5. Nihoyat tong yorisha boshladi. Beixtiyor qo'llari titrab telefon raqamlarini terdi. Bir chaqiruvdanon go'shakni ko'targan yangasi "Siz ham uxlamadingizmi?", deya birinchi bo'lib savol berdi. Jahongir kecha yomg'irli kunda o'rtog'lar bilan ko'chada uyg'rib, oyog'idan nam o'tkazibdi. Shunga tuni bilan isitmalab chiqdi, degan javobni eshitgandan so'ng ko'ngli notinchligining sababini angladi. Onalik his-tuyg'ulari hech qachon yangilishmasligini yana bir karra his etdi.

- Axir tushun, men tuni bilan uxlamadim. Yo'l uzoq bo'lsa, buning us-tiga yana jala quyaypti. Isitma qilgan bo'lsa, ana, ota-onasi davolatadi. Sen nima deb borasan yana, shuni o'ylayapsanmi? Borolmaymiz! - eridan eshitgan javobi ham uni to'xtata olmadi.

- Unda ruxsat bering, men yo'lga chiqay. Takside borib kelaman, - deya shaxt bilan narsalarini sumkaga joylay boshladi.

- Xo'p. Olib boraman. Lekin, "qolaman" deb meni qiynamaysan. Biror soat o'tiramiz-u qaytamiz, - dedi Salim.

Odatda uzoq yo'lga chiqishsa, er-xotin gurunglashib ketishardi. Boziri esa ikkalasi ham o'z xayollari bilan band, gapirgisi ham kelmasdi... O'shanda, onasi rahmatli, bitta-yitta akasining oilasini saqlab qolish uchun unga farzand kerakligini aytganda, o'zi rozi bo'lib, shu taklifni bergandi. Erini ham shunga ko'ndirgan o'zi. Endi, qanday qilib uni "olib ketaman" deya oladi. Bularningku uchta bolasi bor. Akasi bilan yangasining holi nima kechadi? "Ammajon, siz boshqachasiz-da", deya har gal nigohlaridan javob izlayotgan bolasining holichi? Onasi o'g'liga baxt ulashaman deb, qizining onalik his-tuyg'ularini bir umrga ko'mib qo'yishini bilmagan-da...

- Nega yig'laysan, Guli. Meni ham qiynab yubording. Sen-ku yig'lab,

dardlaringni chiqarasan. Meni ham tushun, menga oson deb o'ylaysanmi? - dedi Salim mashinaning orqa o'rindig'iga o'tirgan xotiniga qarab.

Ha, unga ham qiyin. Bir gal bolalari "biz bobomlarnikiga ketamiz endi" deb mashinaga chiqqanda, Jahongir ham ketmoqchi bo'lgan edi. Shunda eri uni astagina tushirib qo'yib, "Sen onang bilan o'zingning bobongnikiga borasan, biz keyin Zarafshonga ketamiz", - deb bolasini beixtiyor bag'riga bosgandi. Shunda, ancha yo'lgacha qo'llari titrab, biror og'iz gapirmasdan ketishgandi. Aslidaku, bunaqa holatlar ko'p bo'lgan. Eri o'zini go'yo e'tibor qilmagandek tutadi, bolasidan nigohlarini olib qochadi.

- Ammajon, siz menga shunaqasini olib kelishingizni bilardim. Dadam bugun etik olib beraman, dedilar. Qish chiqqanda endi etik kiyamayman-ku. Menga yoqadigan krossovkani esa oyligim tushganda olamiz degandilar, - derdi qizil hoshiyali krossovkani quchoqlab olgan Jahongir quvonchi ichiga sig'masdan.

Bola-da. Bir pasda kasalligini ham unutilib, yangi narsalarni kiyib, ko'chaga otlandi. Ammasi olib kelgan shirinkalarni qo'lga dastalar ekan, "meniki Muhishnikidan ham zo'r, endi suv o'tmaydi, do'ppini ham uzoqqa tepa olaman", - deb o'ziga-o'zi gapirib bordardi.

Jala tinib, erta bahorning musafirov havosi ona zaminni tutayotgandi. Quyoshning zarrin nurlari mashina oynasidan go'yo ona qalbiga kirib bordardi. Erining mashina tezligini oshirib boshqarayotganidan xavotirlanib, "Bizni uyda yana bolalarimiz kutayapti", dedi Gulshoda biron jilmayganicha.

Nafosat ZIYOYEVA.



Onalik mehri bilan bolasini qattiq quchib, go'yo uning dardlarini o'zini qilib, unga quvonch ulashgan Gulshodaning ko'ngli tinchidi. Shunda ko'z oldiga uydagi erkatoq o'g'illari keldi. Har oy otasining oyligiga yangi kiyim olishni rejalashtirib turishadi. Kun ora almashtirib kiyganidan yo'yoq kiyimlariga joy topilmaydi... Asosiysi, bolasi soppa-sog', o'yinab-kulib katta bo'lyapti. Hali hamma-hammasini o'zi tushuntiradi. Biroq, hali ungacha vaqt bor.

Nega darrov kelib-ketishganini akasi bilan yangasi tushuna olishmadi. "Oyog'ida hech narsasi yo'q", - degan bo'lsang kerak-da. Erta-indin zagruzka bo'lsa olib berardim o'zim. Kuyovning oldida nima degan odam bo'ldim, - deya to'ng'illadi Shomurod.

Jala tinib, erta bahorning musafirov havosi ona zaminni tutayotgandi. Quyoshning zarrin nurlari mashina oynasidan go'yo ona qalbiga kirib bordardi. Erining mashina tezligini oshirib boshqarayotganidan xavotirlanib, "Bizni uyda yana bolalarimiz kutayapti", dedi Gulshoda biron jilmayganicha.

Nafosat ZIYOYEVA.

■ Спорт

СМА В ЕДИНСТВЕ

С первых дней основания промышленного гиганта Навоийского горно-металлургического комбината, руководством комбината огромное внимание уделялось развитию и пропаганде спорта среди трудящихся НГМК и подрастающего поколения. Каждый трудящийся НГМК может выбрать себе спорт по душе и по физическим возможностям. Ведь только человек, занимающийся спортом - это личность, которая не стоит на месте, которая идет вперед, развиваясь, стремясь оставаться молодым и здоровым, как можно дольше. Благо, спорт бывает абсолютно разным, от разных видов до разных нагрузок. И именно поэтому в шести городах, где ведется деятельность комбината, организуется спортивно-оздоровительную работу 90 тренеров и инструкторов в шести спортивных объектах ГУ «Фонд НГМК»: ФСК «Согдиана», СК «Алпомыш», СК «Лочин», КСК «Эшлик», КСК «Кончи» и СК «Маржанбулак». Для взрослых и детей функционируют 70 секций в этих спортивных комплексах более чем по 15 видам спорта (мини-футбол, баскетбол, волейбол, гандбол, плавание, гимнастика, фехтование, дзюдо, самбо, шашки и шахматы, настольный теннис, греко-римская борьба, вольная борьба, легкая атлетика, таэквондо и бокс). Более 6 тысяч трудящихся НГМК, члены их семей, пенсионеры НГМК и жители городов и области регулярно посещают секции и группы здоровья, где имеют

возможность состязаться с единомышленниками, поправлять здоровье, получать навыки и знания для достижения побед в соревнованиях различного уровня и масштаба.

С гордостью можно сказать, что за истекшие шесть месяцев 2024 года спортсменами спорткомплексов НГМК было завоевано около 700 медалей (золото, серебро и бронза) на областных, республиканских и международных чемпионатах и соревнованиях по различным видам спорта. Воспитанники ФСК «Согдиана» завоевали 434 медали, СК «Алпомыш» - 107 медалей, СК «Лочин» - 71 медаль, КСК «Эшлик» - 65 медалей, СК «Маржанбулак» и КСК «Кончи» - 17 медалей. Все эти победы не могут не радовать, так как за этими цифрами стоит колоссальный труд, упорство, дисциплина, желание побеждать, поднимать флаг нашей Родины и прославлять Узбекистан и комбинат. Пожелания нашим молодым спортсменам только одно вперед и только вперед, покоряя вершины всех олимпов и на будующей олимпиаде, блистать как победители летней олимпиады 2024.

Наргиза ХАМИДОВА,
руководитель группы по организации культурно-спортивной деятельности ГУ «Фонд НГМК».

■ Bilib qo'yan yaxshi!

MEVALARNING FOYDALI VA SHIFOBAXSH XISLATI

QULUPNAY



Uning tarkibida kaloriy miqdori past hisoblanadi. Hattoki, qulupnayli parhez ham mavjud. Bunday parhez natijasida teri yosharadi va unga yaxshi ta'sir qiladi. Qulupnay vitaminlarga boydir. Foydali ekan deb, me'yoridan ortiq iste'mol qilish yaramaydi. Chunki allergiyasi borlarni bezovta qilishi mumkin.

• 150 gr. miqdorida yeyilgan qulupnay stressdan qutulishning eng zo'r yo'lidir.


OLMA



Olma qon tarkibidagi xolesterin miqdorini pasaytirish xususiyatiga ega. Uning po'stlog'i saraton kasalligini oldini olishda foydali hisoblanadi. Olmani po'stlog'i bilan yeyishga harakat qiling. Bu tarzda iste'mol qilish orqali organizmga kversetin va vitamin S kiradi.

• Lab yorilganda qirg'ichdan chiqarilgan olma yog' aralashdirib surish tavsiya etiladi.

TARVUZ



Tarvuz tarkibida oziq moddalar bilan birga V 1, V 2, S, RR vitaminlari, karotin, qand mavjud. Ular organizmda moddalar almashinuvini va ovqat hazm qilish ti-

zimini yaxshilash imkonini beradi. Issiq kunlarda ko'p miqdorda tarvuz yeyish orqali ortiqcha vazn muammosidan qutulish mumkin.

• Kuygan joyga tarvuz qo'yish kerak.

BANAN



Banan sportchilarning mevasi hisoblanadi. Chunki u insonga energiya bag'ishlash xususiyatiga egadir. Sport maydonchasida bir yarim soat tinimsiz shug'ullanish uchun ikkita banan yeyish kifoya qilar ekan. Buni taqdilotlar ko'rsatmoqda. Uning tarkibida V 6 vitamini mavjud bo'lib, u qonda-gi glukoza miqdorini me'yorlashtirib, kayfiyatini yaxshilaydi. Banan kamqonlikda yordam beradi. Kaliy moddasi yurak faoliyatini va organizmdagi suv balansini yaxshilaydi.

• Yoz faslida ko'pchilikni chivin chaqib, bezovta qiladi. Bu paytda qiynalmaslik uchun banandan samarali foydalaning. Chivin chaqqandan so'ng banan po'stlog'ini qo'yish kerak.

NOK



Uning tarkibida ko'p miqdorda qand, ferment, mikroelementlar (misol uchun yod) va V 1, R, RR vitaminlari mavjud. Shu bois, nok sharbati tana a'zoga foydali hisoblanadi. Nok yaralarni tez fursatda bitishiga yordam beradi. Haroratni tushirish

xususiyatiga ham ega. Nok tarkibidagi kaliy yurak faoliyatini yaxshi ishlashini ta'minlaydi. Nok yod moddasiga boy bo'lib, qon tomlari faoliyatini yaxshilashiga yordam beradi. Nok mevasi ichak faoliyatini yaxshilab, bakteriyalarga qarshi kurashish xususiyatiga ham ega hisoblanadi. Uning hidi qancha xushbo'y bo'lsa, shuncha foydalidir.

• Nokdan tayyorlangan niqob sepkilarni yo'qotishda yordam beradi.

APELSIN



Apelsin - S vitamini bo'y bo'lish bilan birga, klechatkaga boy hisoblanadi. Bundan tashqari, apelsin tarkibi bida xolesterin miqdorini kamaytirish, qondagi qand moddasini pasaytirish xususiyatiga ega bo'lgan pektin va foydali moddalar bor. Bu tabiatning ne'mati bo'lgan apelsin ayniqsa, qandli diabet bilan og'ruvchi kasallarga foydali hisoblanadi.

• Apelsin oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilab, organizmni tozalash xususiyatiga ham ega-dir.

OLXO'R



Olxo'ri temir moddasiga boydir. Olxo'ri ayniqsa, jig'ildon qaynaganda, ichak faoliyatidagi keraksiz moddalarni chiqarishda yordam beradi. Shu bilan birga, ateroskleroz, bod (revmatizm) kasalligida foydalidir.